

Guliston davlat universiteti o'quv-uslubiy Kengashining 9-sonli yig'ilishi  
bayonnomasidan ko'chirma

2023-yil 27-aprel

Guliston shahri

Kun tartibi:

2. Har xil masalalar.

**2.2. Uslubiy qo'llanmalarni tasdiqlash to'g'risida.**

1) "Amaliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi U.Yuldashev tomonidan 60110600-"Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Web dizayn" fanidan "Web dizayn" amaliy mashg'ulotlar nomli uslubiy qo'llanmasini nashrga tavsiya etish to'g'risida

**Eshitildi:** Universitet o'quv-uslubiy Kengashi kotibi F.Irsaliyev Kengash a'zolariga "Amaliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi U.Yuldashev tomonidan 60110600-"Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Web dizayn" fanidan "Web dizayn" amaliy mashg'ulotlar nomli uslubiy qo'llanmasini nashrga tavsiya etib tasdiqlab berishlarini so'radi.

Mazkur masala ovozga qo'yildi.

"Rozilar" – 43 nafar.

"Qarshilar" – yo'q.

"Betaraflar" – yo'q

Universitet o'quv-uslubiy Kengashi kun tartibidagi masala yuzasidan  
qaror qiladi:

1) "Amaliy matematika va axborot texnologiyalari" kafedrasida katta o'qituvchisi U.Yuldashev tomonidan 60110600-"Matematika va informatika" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Web dizayn" fanidan "Web dizayn" amaliy mashg'ulotlar nomli uslubiy qo'llanmasini nashrga tavsiya etilsin.



**J.Karshibayev**

**F.Irsaliyev**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FAKULTETI**

**AMALIY MATEMATIKA VA AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI**



**WEB DASTURLASH VA DIZAYN  
fanidan amaliy va laboratoriya ishlarini  
bajarish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma**

**GULISTON – 2023**

U.A.Yuldashev, A.A.Butaboyev, D.R.O'ng'arov, Sh.Q.Toshtemirov, R.O.Umirkulov «Web dasturlash va dizayn» fanidan amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish bo'yicha uslubiy qo'llanma, Guliston sh, 2023 yil, 92 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanma amaldagi dasturlar asosida tayyorlangan bo'lib, 60110600 – “Matematika va informatika” bakalavriat yo'nalishi, 50610401 – “Kompyuter injiniring”, 30610401 – “Axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari” texnikom va kasb – hunar maktablarida tahsil olayotgan talabalar hamda o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimiga asoslangan holda nazariy materiallar, amaliy ishlarni bajarish uchun uslubiy talablar va topshiriqlar, bilimlarni nazorat qilish uchun savollar majmuasi kabilar keltirilgan. Shuningdek web dasturlash va dizayn masalalarini yyechishda, WEB saxifalar yaratish, ma'lumotlar bazalalari bilan ishlash masalalarini qamrab oladi. Bu uslubiy qo'llanmaning maqsadi tinglovchilarga ta'lim standartida talab qilingan bilimlar, ko'nikmalar va tajribalar darajasini ta'minlashdir.

O'quv – uslubiy qo'llanma Guliston davlat universiteti O'quv – uslubiy Kengashi tomonidan («\_\_»\_\_\_\_\_2023 y. dagi, №\_\_sonli bayonnoma) nashrga tavsiya etilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma Amaliy matematika va axborot texnologiyalari kafedrasining 2023-yildagi \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli yig'ilishida maqullangan. Fakultet uslubiy kengashining 2023 yildagi \_\_\_\_\_dagi \_\_\_-sonli qarori bilan muhokama etilib foydalanishga tavsiya etilgan.

**Taqrizchilar:** **Niyozov M.B.**, Guliston davlat pedagogika instituti  
Aniq fanlar kafedراسi mudiri, pedagogika fanlari  
falsafa doctori (PhD), dotsent.

**Toshtemirov D.E.**, Guliston davlat universiteti  
Amaliy matematika va axborot texnologiyalari  
kafedراسi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi.

## KIRISH

Bugungi kunda Internet olamiga faqatgina kompyuterlar bilan emas, balki uyali telefon aloqa texnologiyalari yordamida ham kirish oddiy holga aylandi. Shuningdek, hozirgi globallashtirilgan davrda har tomonlama takomillashtirilgan vositalar va kashfiyotlar ham sinovdan o'tkazilmoqda. Global kompyuter tarmog'i bugungi kungacha ma'lum bo'lgan barcha axborot manbalaridan (telefon, pochta, televidenie, radio, matbuot nashrlari va boshqalar) farqli holda, o'z foydalanuvchilariga har qanday ma'lumotni istalgan shakl va ko'rinishda, ularning qiziqish va xohishlariga qarab, alohida tanlov asosida uzatish va olish uchun qulay imkoniyat yaratib kelmoqda.

Web dasturlash va dizayn fani 60110600 – “Matematika va informatika” bakalavriat yo'nalishi, 50610401 – “Kompyuter injiniring”, 30610401 – “Axborot vositalari mashinalari va kompyuter tarmoqlari” texnikom va kasb – hunar maktablarida tahsil olayotgan talabalar hamda o'quvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, fanni o'qitish natijasida bo'lajak informatika o'qituvchilari web-saytlar yaratishda qo'yiladigan talablar, dasturiy vositalar va ularning tasnifi, ulardan foydalangan holda web-saytlar yaratishga oid bugungi kunning zamonaviy bilimlari bilan qurollantirishga e'tibor qaratiladi.

Web dasturlash va dizayn fanini o'qitishdan maqsad - informatika o'qituvchisining kasbiy sohasida egallashi lozim web-dizaynga oid bo'lgan bilimlar va amalda qo'tlash uchun ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Unda har bir kasb egasining faoliyati kerak bo'lgan tayanch nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Web dasturlash va dizayn fanining vazifasi:

- Web texnologiyalar asoslari bilan tanishtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari orqali olinayotgan ma'lumotlarning qanday hosil qilinishi va ulardan foydalanish haqida ma'lumotlarni berish;
- Web saytlarni hosil qiluvchi dasturlar va dasturlash tillari bilimlari bilan tanishtirish;
- Flash muhitida oddiy va interfaol animasiyalar, flash saytlar yaratishga o'rgatishdan iborat.

# AMALIY MASHG'ULOTLAR

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR**

### **Amaliy mashg‘ulot №1**

#### **MAVZU: HTMLGIPERMATNLI TILI YORDAMIDA WEB-SAHIFA YARATISH**

*Ishdan maqsad:* HTMLgipermatnli tili yordamida Web-sahifa yaratishni o‘rganish

#### **NAZARIY QISM**

Internet - sayyoramiz miqyosidagi kompyuter tarmoqlarining birlashmasidir. Agar kosmik stantsiya a‘zolarining E-mail dan foydalanishini inobatga olsak internetning sayyoramiz sarhadlaridan chiqqanini ham ko‘rishimiz mumkin.

Butun dunyo o‘rgimchak to‘ri WWW (World Wide Web) - bu ko‘p sonli o‘zaro bir-biriga bog‘langan hujjatlardir. Web sahifada boshqa Web sahifalar bilan bog‘lovchi chekli gipermurojaat bo‘ladi. Gipermurojaat mexanizmini bir necha so‘z bilan izohlash qiyin, lekin kamida bir marta Web sahifaga kirib ishlagan odam buni darhol tushunadi.

Gipermurojaat butunjahon o‘rgimchak to‘ridan hujjatning URL deb nomlanuvchi manzilini qidirishda ishlatiladi. Biz bilamizki Web sahifaning asosiy mohiyati axborotni tacvirlash va uni har bir foydalanuvchi uchun ochib berishdir. Bunda bir qancha funksional cheklanishlar mavjud, ya‘ni biz oldindan Web sahifani ko‘ruvchining kompyuteri qanday, monitorining imkoniyati qanday va ko‘rish oynasining qanday o‘lchamda o‘rnatilganligini bilmaymiz. Biz hattoki foydalanuvchining qanday operatsion muhitda ishlayotganini ham bilmaymiz. Web sahifa esa INTEL mashinada ham Makintoshda ham bir xil ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Foydalanuvchi o‘z operatsion muhitida qanday yozuv shriftlar o‘rnatganligi yoki uning videokartasi qancha rangni ko‘tara olishi ham malum emas. Yuqoridagi ma‘lumotlarning yo‘qligi yoki etarli emasligi umumaxborot almashish tilining paydo bo‘lishiga to‘siq bo‘lishi kerak edi, lekin bunday bo‘lmadi.

Gap shundaki 1986 yili xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan qog‘ozdagi hujjatni ekranda tasvirlash imkonini beruvchi hamma variantlarni etiborga olgan SGML (Standart Generalired Markup Language) tili yaratildi. Hamma imkoniyatlarni etiborga olgan kuchli sistema ishlab chiqildi.

Web sahifa uchun bu yaxshi yo‘l deb hisoblangan edi. Lekin bu til qonun qoidalari izohi yuzlab sahifalarni egalladi. Bunday til asosida yaratilgan sahifani tasvirlovchi dasturni ishlab chiqish uchun juda ko‘p vaqt ketgan bo‘lardi, shuning uchun Internet ehtiyoji uchun SGML tilining malum bir qismi tanlab olindi va HTML (Hyper Text Markup Language) deb nomlandi. HTML tilida yozilgan Web sahifa

faylida axborotning qanday tasvirlanishi haqidagi yo‘l yo‘riqlar ketma – ket joylashgan bo‘ladi. Bu fayl oddiy matnli fayl bo‘lib uni maxsus brauzer dasturlarsiz o‘qish qiyin. Grafik rasmlarni esa umumman ko‘rib bo‘lmaydi chunki uning o‘rnida brauzer dasturga biror rasm kerakligini ko‘rsatuvchi TEG turadi. Agar biz o‘z Web sahifamizni yaratmoqchi bo‘lsak, albatta HTML tilini yaxshi bilishimiz kerak bo‘ladi.

HTML ning konstruktsiyasi TEG lar deyiladi. Brauzer TEG larni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadilar. TEG tasvirlash jarayoni hatti harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga talluqli bo‘lsa, bunday teg o‘zining yopiluvchi juftiga ega bo‘lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa *<html>* tegi bilan boshlanib *</html>* tegi bilan yopilishi kerak. E’tibor bergan bo‘lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « G » belgisi bilan farqiladi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi «<- - » va «- ->» belgilar orsiga yoziladi.

Masalan:

```
<-- Bu izox -->
```


Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi ma’lumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi *<head>* va yopiluvchi *</head>* teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa *<body>* va *</body>* teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldidan qo‘llanilayotgan HTML standartlari haqida ma’lumot yoziladi. Har qanday Web sahifaning umumiy ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

### **Amaliy mashg‘ulotni bajarish tartibi**

#### **Quyidagi kodni yozib lab 1.html da saqlaymiz**

#### **Qarabsizki sizda HTML xujjatning asosiy tuzilishi paydo buladi**

```
<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3C//DTD HTML 4.01//EN ">
<html>
  <head>
    <title>
      Hujjat sarlavhasi
    </title>
  </head>
  <body>
    Asosiy qism
  </body>
</html>
```



1-rasm: Htmlda text bilan ishlash

Birinchi `<!DOCTYPE>` tegi o'zining parametrlari bilan brauzerga ushbu Websahifani qaysi HTML versiyada yozilganligi haqida ma'lumot beradi.

Web sahifa ishga tushirilganda brauzerning eng yuqori satrida yuklanayotgan hujjat mazmunini anglatuvchi Qisqacha yozuv turadi. Bu yozuvni hosil qilish uchun quyidagi ochiluvchi `<title>` va yopiluvchi `</title>` teglaridan fodalanamiz.

Misol:

```
<html>
```

```
<head>
```


```
<title>Web sahifa sarlavhasi</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
</body>
```

```
</html>
```



2-rasm: Web sahifaga nom berish




Web sahifaning asosiy qismi `<body>` va `</body>` teglari orasida joylashadi. Bu oddiy matn bo‘lishi mumkin. Brauzer bu matnni to‘g‘ridan to‘g‘ri interpretatsiya qilib ekranda tasvirlaydi. Bizga dastlabki Web sahifamizni yaratish uchun oddiy «Bloknot» matn muharriri qifoya. Quyida ko‘rsatilgan misolni matn muharririda yozib, uni xotiraga yozishda kengaytmasini html yoki htm deb kiritishimiz kerak.

Misol:

```
<html>
  <head>
    <title>Mening birinchi Web sahifam </title>
  </head>
  <body>
    Mening bu sahifamga kiruvchilarga alangali salom
  </body>
</html>
```

Bu faylni ishga tushirish uchun sichqoncha ko‘rsatkichini shu fayl ustiga keltirib chap tugmasini ikki marta bosish kerak. Natijada ekranda quydagi ko‘rinishdagi natija hosil bo‘ladi:



3-rasm: Web sahifaga ma‘lumot kiritish

`<body>` tegi bir qancha qo‘shimcha parametrlarga ega. Bu parametrlar tegning ochiluvchi qismida joylashadi. Parametrlar ikki qismdan iborat bo‘ladi: parametr nomi va parametr qiymati. Masalan `bgcolor` parametri tasvirlanayotgan Web sahifa fonining rangini belgilaydi.

Masalan: `<body bgcolor = "green">`

Parametrlarning satrli qiymatlari qo‘shirnoq ichida yoziladi. Biz quyida `<body>`

tegining parametrlari bilan tanishamiz.

- *Background* - fon sifatida biror bir grafik tasvirdan foydalanish. Parametr qiymati sifatida grafik tasvir joylashgan manzil (URL) beriladi.
- *Text* - tasvirlanayotgan matn rangi.
- *Link* - Web sahifadagi matnli gipermurojat rangi.
- *Vlink*-foydalanuvchi tomonidan oldin murojat qilingan gipermurojaat rangi.
- *Alink* - foydalanuvchi tomonidan tanlangan gipermurojaat rangi.
- *Lang* – Web sahifa matni yozilgan tilni aniqlash.

### 3.2. Meta ma'lumotlar

Endi biz metama'lumotlar bilan tanishib chiqamiz. Web sahifalarda meta ma'lumotlarini hosil qilish uchun `<meta>` tegi ishlatiladi, uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

```
<meta name="o'zgaruchi nomi" content="o'zgaruvchi qiymati">
```


Agarda biz Web sahifadagi avtor haqida ma'lumot yozmoqchi bo'sak uni quyidagi ko'rinishda yozish mumkin:

```
<meta name="Auther" content="Bu meniki!!!">
```

Meta ma'lumotlar asosan Internetda joylashgan qidirish mashinalari uchun zarur. Qidirish mashinalari Web sahifalar haqidagi ma'lumotlarni qayyerdan oladi degan savol paydo bo'ladi. Xuddi shu ma'lumotlarini qidirish mashinalari meta o'zgaruvchilardan oladi. (Web sahifa qaysi sohaga tegishli, unda qanday ma'lumotlar borligi) `<meta>` tegida *keymards* va *description* o'zgaruvchisi bor. *Keymards* o'zgaruvchili Web sahifadagi kalitli so'zlar ro'yxatini o'zida saqlaydi. *description* o'zgaruvchi esa Web sahifaning Qisqacha ma'lumotini o'zida saqlaydi. Masalan, bizning Web sahifamiz kompyuter viruslari haqida tayyorlangan bo'lsin u holda HTML hujjatda meta ma'lumotlarni quyidagicha yozish mumkin:

Misol.

```
<html>
  <head>
    <title>kompyuter viruslari </title>
    <meta name="keywords" lang="ru" content="virus,
      kompter, antivirus,...">
    <meta name="description" content="Web sahifadagi kompter viruslariga
      bag'ishlangan"
  </head>
  <body>
    kompyuter viruslari bu ....
  </body>
</html>
```



#### 4-rasm: Meta ma'lumotlar bilan ishlash

Brauzerlar foydalanuvchi tomonidan ochib ko'rilgan Web sahifalarini kesh xotirada saqlab qoladi. Agar foydalanuvchi yana shu sahifalarga murojaat qilsa, Web brauzer oldindan kesh xotirada mavjud bo'lgan (yana yangi sahifani internetdan olmasdan) nusxasini olib ko'rsatadi. Bu jarayon foydalanuvchining vaqtini va iqtisodini tejaydi. Endi Web sahifa qachon yangilanadi degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga metama'lumotlardagi *expres* o'zgaruchilardan javob olish mumkin. Bu o'zgaruvchida Web sahifaning yaroqlilik muddati ko'rsatiladi. Agar kesh xotiradagi web sahifa yaroqlilik muddati o'tgan bo'lsa, brauzer tarmoqdan Web sahifani qaytadan o'qib oladi.

Misol:

```
<meta http-e=uiv="Expres" content="Tue,uf Aug 2002 14:56:27 Gmt">
```

Web sahifalarda ma'lumotlar tez o'zgarishi mumkin, masalan chatlarda va birja sahifalarida ma'lumotlar tez o'zgaradi. Bunday hollarda *refresh* o'zgaruvchisidan foydalaniladi va qiymatlari sekundlarda beriladi.

Masalan:

```
<meta http-e=uiv="Refresh" content=10>
```

Bu yozuvdan keyin Web sahifa har 10 sekunddan keyin avtomatik tarzda o'zi qayta yuklanadi.

### **Amaliy ishni bajarish uchun quyidagi html tilining asosiy teglarini bilishingiz lozim**

#### **Asosiy teglar.**

`<html></html>` Web sahifani ko'ruvchi dasturga bu hujjatning HTML hujjat ekanligini ko'rsatadi.

`<head></head>` Hujjatda tasvirlanmaydigan har xil ma'lumotlarning joylashish

o‘rnini ko‘rsatadi. Bu yyerda hujjatning nomlanish tegi va qidiruv mashinalari uchun teg joylashadi. Bundan tashqari JavaScript funksiyalari ham shu yerda joylashadi.

`<body></body>` hujjatning ko‘rinuvchi ya’ni asosiy qismini bildiradi.

### **Sarlavha tegi.**

`<title></title>` brauzer sarlavhasiga hujjat nomini joylashtiradi. **Hujjat asosiy qismining atributlari.**

`<body bgcolor=?>` RRGGBB ko‘rinishida rang qiymatini qo‘llab hujjat foni rangini o‘rnatadi. Misol: FF0000 – qizil rang.

`<body text=?>` Rang qiymatini RRGGBB ko‘rinishida qo‘llab hujjatdagi matn rangini o‘rnatadi. Misol: 000000 – qora rang.

`<body link=?>` Rang qiymatini RRGGBB ko‘rinishida qo‘llab hujjatdagi gipermurojaat rangini o‘rnatadi. Misol: 00FF00 - yashil rang.

`<body vlink=?>` Rang qiymatini RRGGBB ko‘rinishida qo‘llab hujjatdagi foydalanilgan gipermurojaat rangini o‘rnatadi.

Misol: 333333 – kulrang rang.

`<body alink=?>` Gipermurojaatning bosilayotgandagi rangini o‘rnatadi.

### **Matnni formatlashda ishlatiladigan teglar.**

`<pre></pre>` Oldindan formatlangan matnni tasvirlaydi.

`<h1></h1>` ENG KATTA sarlavha hosil qiladi.

`<h6></h6>` eng kichik sarlavha hosil qiladi.

`<b></b>` qalin shrift hosil qiladi.

`<i></i>` qiya shrift hosil qiladi.

`<tt></tt>` Yozuv mashinkasinikiga o‘xshash shrift hosil qiladi.

`<cite></cite>` tsitata uchun ishlatiladigan shrift hosil qiladi. Odatda qiya yozilgan shrift ishlatiladi.

`<em></em>` matndagi so‘zni alohida ajratib ko‘rsatadi. (qiya yoki qalin matn)

`<strong></strong>` matnning muhim qismlarini belgilashda ishlatiladi. (qiya yoki qalin matn).

`<font size=?></font>` 0 dan 7 gacha bo‘lgan oraliqda matn o‘lchamini o‘rnatadi. `<font color=?></font>` Rang qiymatini RRGGBB ko‘rinishida qo‘llab hujjatdagi matn rangini o‘rnatadi.

### **Gipermurojaatlar.**

`<a href="URL"></a>` Boshqa bir Web hujjatga yoki joriy hujjatning biror bir qismiga gipermurojaat hosil qiladi.

`<a href="mailto:EMAIL"></a>` Elektron xat yozish uchun ishlatiladigan dasturga murojaatni hosil qiladi.

`<a name="NAME"></a>` Hujjatdagi matn qismini gipermurojaat qilish maqsadida belgilaydi.

`<a href="#NAME"></a>` Joriy hujjatning qismiga gipermurojaat hosil qilish.

### **Formatlash.**

`<p>` yangi abzats hosil qiladi.

`<p align=?>` *left*, *right*, yoki *center* qiymatlarni qoʻllab abzatsni tekislash.

`<br>` yangi satrdan boshlash.

`<block=uote></block=uote>` Matnning ikkala tomonidan boʻsh joy ajratadi.  
`<dl></dl>` aniqlovchi roʻyxat hosil qiladi.

`<dt>` roʻyxatdagi har bir termini aniqlaydi.

`<dd>` roʻyxat bandiga izoh berish.

`<ol></ol>` raqamli roʻyxat hosil qiladi.

`<li>` roʻyxatdagi har bir elementni aniqlaydi va tartib raqam beradi.

`<ul></ul>` raqamlanmagan roʻyxat beradi.

`<li>` Roʻyxatdagi har bir elementni aniqlaydi.

`<div align=?>` HTML hujjatlarda matnli bloklarni formatlash.

### **Grafik elementlar.**

`` HTML hujjatga grafik tasvir qoʻshish.

`` *left*, *right*, *center*; *bottom*, *top*, *middle* qiymatlarini qoʻllab tasvirni hujjatning biror tomoniga tekislash.

`` Tasvir atrofi ramkasi qalinligini oʻrnatadi.

`<hr>` HTML hujjatga gorizontaal chiziq qoʻshish.

`<hr size=?>` Chiziqning qalinligini oʻrnatish.

`<hr width=?>` Chiziq enini piksel yoki protsentlarda oʻrnatish.

`<hr noshade>` Chiziq soyasini yoʻqotish.

`<hr color=?>` Chiziqqa maʼlum bir rang berish. Qiymati RRGGBB.

### **Jadvallar.**

`<table></table>` jadval hosil qilish.

`<tr></tr>` jadvaldagi satrlarni aniqlash.

`<td></td>` jadvaldagi alohida yacheykani aniqlash.

`<th></th>` jadval sarlavhasini aniqlash.

### **Jadval atributlari**

`<table border=#>` Jadval ramkasi qalinligini berish.

`<table cellpadding=#>` Jadval yacheykalari orasidagi masofani berish.

`<table cellspacing=#>` jadval qiymatlari va ramkasi orasidagi masofani berish.

`<table width=#>` jadval enini piksellarda yoki hujjat eniga nisbatan foizlarda berish.

`<tr align=?>` yoki `<td align=?>` *left, center, yoki right* qiymatlarini qo‘llab jadvalda yacheykalarni tekislash.

`<tr valign=?>` yoki `<td valign=?>` *top, middle, yoki bottom* qiymatlarini qo‘llab jadval yacheykalarini vertikal bo‘yicha tekislash.

`<td colspan=#>` Bitta yacheykaga birlashgan ustunlar sonini ko‘rsatish. (jimlik bo‘yicha q1)

`<td rowspan=#>` Bitta yacheykaga birlashgan satrlar sonini ko‘rsatish. (jimlik bo‘yicha q1)

`<td nowrap>` brauzerga jadval yacheykasidagi satrni ko‘chirishni taqiqlaydi.

### **Freymlar.**

`<frameset></frameset>` Hujjatda freym yaratish.

`<frameset rows="value,value">` Freymning gorizontal bo‘yicha o‘lchamlar nisbati.

`<frameset cols="value,value">` Freymning vertikal bo‘yicha o‘lchamlar nisbati.

`<frame>` Freymda hosil qilinadigan ob‘ektни aniqlaydi.

`<noframes></noframes>` Bu teglar orasida yozilgan ma‘lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo‘ladi.

### **Freym atributlari.**

`<frame src="URL">` Freymda tasvirlanishi kerak bo‘lgan HTML hujjatni aniqlash.

`<frame name="name">` Freym nomini aniqlash.

`<frame marginwidth=#>` freymning o‘ng va chap tomonlaridan bo‘sh joy qoldirish.

`<frame marginheight=#>` freymning yuqori va quyi tomonlaridan bo‘sh joy qoldirish.

`<frame scrolling=VALUE>` foydalanuvchiga freymdagi o‘tkazish yo‘lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini berish.

`<frame noresize>` freym o‘lchamlarining o‘zgarmasligini ta‘minlash.

### **Formalar.**

`<form></form>` forma hosil qilish.

`<select multiple name="NAME" size=?></select>` Yo‘lakchali menyu yaratish.

`<option>` menyuning har bir alohida elementini ko‘rsatish.

`<select name="NAME"></select>` Yo‘lakchasiz menyu yaratish.

`<textarea name="NAME" cols=40 rows=8></textarea>` Matn kiritish uchun ko‘p satrli maydon yaratish

`<input type="checkbox" name="NAME">` Bayroqchalar (*checkboxes*) hosil qilish.

`<input type="radio" name="NAME" value="x">` Ulagich (*radio*) hosil qilish.

`<input type="text" name="foo" size=20>` matn kiritish uchun satr xosil qilish.

`<input type="submit" value="NAME">` "Qabul qilish" tugmasini hosil qilish.

`<input type="image" border=0 name="NAME" src="name.gif">` "Qabul qilish"

tugmasi uchun tasvirdan foydalanish.

<input type="reset"> "Bekor qilish" tugmasini hosil qilish.

1-Amaliy mashg'ulotning topshiriqlari xar bir tinglovchi bitta fanning mavzulari bo'yicha elektron qo'llanmasini yaratish	
	<b>Variantlar</b>
1	Kompyuter bilan ishlashda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiena talablari
2	Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari hamda ularning vazifalari. Ma'lumotlarni saqlovchi xotira vositalari bilan ishlash
3	Axborot tushunchasi, uni ko'rinishlari, o'lchov birliklari. Axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatish
4	Algoritmlar nazariyasi va algoritmlashtirish. Algoritmni ifodalash usullari. Misol va masalalarni hal qilish algoritmlarini ishlab chiqish.
5	Operatsion tizimlar. Windows operatsion tizimi
6	Windows operatsion tizimi muhitini tuzilishi va unda ishlash kontsepsiyasini o'rganish hamda uning asosiy vazifasi va texnologik imkoniyatlari
7	Microsoft Word dasturida ishlash
8	Microsoft Excel dasturida ishlash
9	Microsoft Power Point dasturida ishlash
10	Microsoft Access dasturida ishlash
11	Paint dasturida ishlash
12	Adobe Photoshop dasturi ishlash
13	Corel Draw dasturi
14	Ulead Gif Animator dasturi ishlash
15	Ligth Alloy, Winamp dasturlari (Multimediya)
16	Movie Maker dasturida ishlash
17	Total Commander. Arxivlash dasturlari (Win Rar)
18	Kompyuter viruslari va antivirus dasturlari haqida ma'lumot (Eset Nod 32 Antivirus).
19	Adobe Reader va Fine Reader dasturlari, PDF formatdagi fayllar
20	Zamonaviy dasturlash tillari va vositalari. Paskal ABC dasturlash tili
21	Kompyuter tarmoqlari. Tarmoq topologiyalari

22	Lokal tarmoqni tashkil etish, ishlash va sozlash
23	Internet tushunchasi va unga ulanish usullari. Internet xizmat turlari
24	Brauzer tushunchasi va ularning vazifalari. Internet Explorer dasturi ishlash. Elektron pochta xizmati va uning imkoniyatlari
25	Internetda axborot qidiruv tizimlari. Internet orqali muloqot va uning ahamiyati
26	Kompyuter bilan ishlashda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiena talablari

### 1. Nazorat savollari

- 1) WWW nima ?
- 2) HTML nima ?
- 3) HTML ning asosiy strukturasi aytib bering ?
- 4) HTML ning asosiy teg lari qaysilari ?
- 5) Web saytni yaratish vositalari ?

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Sh. Pauers Dinamicheskiiy HTML "Lori", 1999. 384 s.
2. Vayk A., Djilliam Dj.JavaScript: Polnoe rukovodstvo: Perevod s angliyskogo."Vilyams", 2004. 719 s.
3. Lehev D.Sozdanie interaktivnogo web-sayta: Uchebno'y kurs. "Piter", 2003.
4. Dronov V. JavaScript v Web-dizayne. SPb-Peterburg, 2002. 880 s.
5. Djeyson Krenford Tige DHTML i CSS dlya Internet. NT Press, 2005. 520 s.
6. Gaevskiy A.Yu., Romanovskiy V.A. Samouchitel po sozdaniyu Web-stranits
7. Matrosov, Sergeev, Chaunin. HTML 4.0 v podlinnike. BHV-SPb, 2000, 672 s.
8. Uilton P. JAVASCRIPT. Osnovo'y. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
9. Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebno'y kurs. Piter. 1-e izdanie. 2002.
- 10.Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik retseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
- 11.Reynbou V. Kompyuternaya grafika SPb-Piter, 2003. 768 s.
- 12.Vikram Vasvani. Polno'y spravochnik po MyS=L. MyS=L: The Complete Reference. Izdatelstvo: Vilyams, 2006 g., 528 str.



13. Lyuk Velling, Lora Tomson MyS=L. Uchebnoe posobie MyS=L Tutorial  
Perevod: Myagkaya oblojka Izdatelstvo: Vilyams, 2005 g., 304 str.
14. Pol Dyubua MyS=L MyS=L Seriya: Landmark Drugie izdaniya: Tverdo'y  
pereplet Analogi: Tverdo'y pereplet Izdatelstvo: Vilyams, 2004 g., 1056  
str.

## **Amaliy mashg'ulot №-2**

### **MAVZU : HTMLDA GIPER MUROJAATLAR VA FREYMLAR.**

**Ishdan maqsad:** HTMLda giper murojaatlar va freymlar bilan ishlash ko'nikmasini xosil qilish.

### **NAZARIY QISM**

Web sahifalarga gipermurojaat WWW ning asosiy xususiyatlaridan biridir. Iсталgan bir hujjatdan boshqa bir WWW hujjatga HTML ning maxsus tegi yordamida murojaat bo'lishi mumkin. Web ga sayohat paytida siz Web sahifalarda gipermatnli murojaatlarga to'qnashgan bo'lsangiz kerak. Bu matn fragmentlari ko'k shriftda va tagi chizilgan bo'ladi. Shu tariqa tasvirlangan matnlar murojaat matnlari deyiladi. Agar siz uni sichqoncha bilan turtsangiz u avtomat ravishda boshqa Web – sahifaga murojaat qiladi.

Har qanday URL manzilida 3 qism mavjud: protokol, internet uzeli, fayl nomi (o'nga yo'l ko'rsatiladi, shart bo'lsa).

*Protokol* – bu 2 ta kompterning bir-biri bilan aloqasining qoidasi, biz WWW ning standart protokoli http (HyperText Transfer protocol) haqida gaplashamiz. Yana siz internet uzeli va fayl nomini ham ko'rsatishingiz kerak.

Masalan:

*http: //www. ursu.uzpak.uz/create*

Buni tushuntiradigan bo'lsak, brauzer ko'rsatilgan *ursu.uzpak.uz* manzilini (http) aniq bir ulanish usuli yordamida internetga ulaydi va *create* direktoriyasidagi Web-sahifani topadi. Har bir internetdagi hujjat va fayl alohida resurslarning universal ko'rsatkichi deb nomlanuvchi manzilga ega (uniform resource locator - URL). URL elektron pochta manzilini eslatib turadi. Internet – kompyuterlar URL ni qanday jo'natishni, uni qanday topishni va nima bilan ulashni o'zlari tushunadi. Web-sahifa qayyerdan joylashishidan qat'iy nazar xox u Yangi Zelandiyada bo'lsin yoki Yaponiyada bo'lsin WWW ular bilan bir xil ishlaydi. Brauzer har bir URL ni ishga solib sizga internetdagi hujjatni topib beradi va avtomatik ravishda taqdim qiladi.

Dunyo bo'ylab Web uzellarni ko'rib chiqmoqchi bo'lgan shaxsga URL haqida va kerakli domen kalitni qanday topishni o'ylashga zarracha ehtiyoj yo'q.

### **Murojaatlar anatomiyasi va maxalliy Web-sahifalarga murojaat.**

Web sahifaga murojaatlarni joylashtirish ikki turda bo'ladi (bir-biriga o'xshash).

Dastlab mahalliy hujjatlarga murojaat qilishni ko‘rib chiqamiz. Mahalliy hujjat bu shunday hujjatki sizning uy sahifangiz internetning qaysi joyida joylashgan bo‘lsa u ham shu yerda joylashgan bo‘ladi. Mahalliy hujjatlarga murojaat qilish oson va bunda siz to‘liq URL ni bilishingiz shart emas, faqat faylga yo‘l va uning nomini bersangiz qifoya. So‘ngra siz WWW ning hojxagan joyidagi hujjatlarga murojaat qilishni o‘rganasiz. Bu turdagi murojaatda sizdan to‘liq URL talab qilinadi.

Faraz qilaylik sizda bitta hujjat uchun ma‘lumot ko‘p va siz uni bir necha HTML fayllarga bo‘lishga qaror kildingiz. U holda asosiy Web-sahifada bu hujjatning har biriga to‘liq va oson o‘tuvchi murojaatlarni joylashtirish kerak bo‘ladi.

Hatto siz asosiy Web-sahifangizni mundarija ko‘rinishida qilishingiz mumkin va bunda alohida sahifalarga murojaat qilinadi.

Dastlab `<a href>` tegi kiritiladi. `<a>` teg o‘zag teg deb nomlanadi. U Web-sahifalarga murojaat uchun ishlatiladi. `href` kalit so‘zi brauzerga siz murojaat qilayotganingiz haqida xabar beradi. `</a>` yopiluvchi tegini esdan chiqarmay yozib ketish kerak. *misol.htm* fayliga murojaatlarni yaratish uchun quyidagi kodni kiritishingiz kerak:

```
<a href="misol.htm"> Misolni ko‘rish </a>
```

Shunday qilib «*Misolni ko‘rish*» iborasi ekranda murojaat matni ko‘rinishida paydo bo‘ladi.

Bu matnga sichqoncha bilan turtsangiz, *misol.htm* faylini ochiladi.

Faylga yo‘lni ko‘rsatishni esdan chiqarmaganingizni tekshirib ko‘ring. Masalan, *tiger.htm* fayli *Exhibits* direktoriyasida saqlangan bo‘lsa, `href` kalit so‘zida *exhibitsG‘tigers*. `<a href="exhibitsG‘tigers.htm">` O tigrak

`</a>` **WWW ning xoxlagan joyiga murojaat.**

Boshqa bir Web uzelga murojaat qilish uchun hujjatning to‘liq URLi talab qilinadi. Lekin murojaatning bu turi ham shunday tarzda, ya‘ni `<a href>` va `</a>` kabi bo‘ladi. URL hamisha `http://` bilan boshlanadi. Shu tarzda brauzer hujjatni sizning Web uzelingizdan emas WWW dan qidirib boshlaydi. URL ning qolgan qismlari siz izlayotgan hujjatning nomi va internetdagi yo‘li, uzelidan iborat bo‘ladi:

```
<a href="http://www.yahoo.com/arts/performinarts/circuses/"> yahoo olami ruyxati </a>
```

### **Murojaat rangi.**

World Wide Web dagi murojaat matnining rangini o‘zgartirishingiz mumkin. Sizning Web sahifangizning matnini rangini *body* tegi yordamida o‘rnatish mumkin: `<body next=red>`

Shu tarzda gipermurojaat matnining rangini ham boshqarish mumkin. Quyida 3 ta yangi kalit so‘z keltirilgan:

*link* - *link* kalit so‘zi *Text* kabi ishlatiladi. `link=blue` o‘rnatilgan bo‘lsa (yoki boshqa bir rang), foydalanuvchi hali ishlatmagan (sichqoncha bilan turtmagan) murojaatlar ko‘k

rangda bo‘ladi.

```
<body text=red link=blue>
```

*vlink* - Ayrim hollarda bir necha murojaatlarning rangi boshqalaridan ajralib turganini sezgan bo‘lishingiz mumkin. Bu murojaat siz tomoningizdan faollashtirilganligidan dalolat beradi. Foydalanuvchi murojaat qilgan murojaatlarning rangini (Visited line) *vlink* kalit so‘zi bilan o‘zgartirish mumkin. Murojaatning rangini ochiq ko‘k rangga o‘zgartirish uchun quyidagi kodda yozish kerak:

```
<body text= line link=aqua vlink=silver>
```

*alink* - Murojaatga sichqoncha bilan turtgan paytdagi rangni o‘zgartirish mumkin. Murojaatning faol rangi *alink* kalit so‘zi yordamida beriladi. Kimdir sizning sahifangizga kirganida murojaat rangi *link* bilan berilgan rangda bo‘ladi. Lekin qachonki siz uni sichqoncha bilan turtsangiz Qisqa vaqtgacha *tlink* bilan berilgan rangga o‘tadi.

Quyida faol murojaatning rangini ochiq sariq rangga o‘zgartiramiz:

```
<body text= line link=aqua vlink=silver alink=yellow>
```

### **Tasvirlarni murojaat sifatida ishlatish.**

WWW-sahifalarda murojaat vositasi bo‘lib faqat matn emas, balki tasvirlar ham ishlatiladi. Bu shuni bildiradiki, qachonki siz tasvirlarni sichqoncha bilan turtsangiz ekranda boshqa Web-hujjat paydo bo‘ladi.

Boshqa HTML - hujjatga tasvir yordamida murojaat qilish uchun xuddi matn singari bo‘ladi. Faqat bunda matn o‘rniga tasvirni berishingiz kerak. Jimlik xolatida Web-brauzerlar tasvir murojaatni ko‘k ramka bilan o‘rab oladi. Tasvirning hoqlagan joyiga sichqoncha bilan turtish orqali mos hujjatga o‘tiladi. Murojaat sifatida tasvirlarning hoqlagan turi, rasmlar va piktogrammalardan foydalanish mumkin. (fon bezaklaridan tashqari).

Maslahat tasvirlar murojaat sifatida tez-tez ishlatiladi. Iloji boricha tushunarli tasvirlardan foydalaning, shunda foydalanuvchilar murojaat ularni qanday manzilga olib borishni tushunadilar.

Masalan, agar siz uy sahifangizda sevimli qo‘shiqlaringiz ro‘yxatiga murojaat qilmoqchi bo‘lsangiz, musiqaga doir piktogrammadan foydalaning. Tasvir murojaatlaridan foydalanganda alternativ matn berish zarur. Tasvir ko‘rinmay qolganda foydalanuvchilar shu orqali murojaatdan foydalanishlari mumkin. Ayrim foydalanuvchilarda tasvirni yuklash ko‘p vaqtni talab qiladi. Ular uchun alternativ matn juda zarur, ana shunda ular nima ko‘rishlarini bilib oladilar. Ixtiyoriy bir tasvirga murojaat chiqarish uchun quyidagicha kodni kiritamiz:

```
<a href="http://www.mep.com/que/">
```

```
 </a>
```

Bu matn o‘rniga *<img>* tegini kiritganimizga e‘tiboringizni karating. Shu tariqa grafik murojaat berish mumkin.

## Freymalar haqida umumiy ma'lumot.

Bizga ma'lumki bir vaqtning o'zida brauzer oynasiga ikkita HTML hujjatni yuklay olmaymiz. Agar biz ishlatayotgan Web sahifalarimizning barchasida bir xil menyu bandlari mavjud bo'lsa har safar Web sahifani yuklaganimizda bir xil ma'lumotni qayta-qayta yuklashga to'g'ri keladi. Bu ma'lumotlar uncha katta bo'lmasligi mumkin, lekin uni yuklash ma'lum bir sekundlarni oladi. Shuning uchun Web sahifalarning o'zgarimaydigan elementlarini har safar yuklamasdan o'zgarishsiz qoldirish kerak. Bu muammolarni yechish imkoniyatlari bor. Biz bitta oynani bir nechta to'g'ri to'rtburchaklarga bo'lib ularning har biriga bitta HTML hujjat yuklashimiz mumkin. Bu to'g'ri to'rtburchak sohalarni biz freymalar deb ataymiz. HTML da freymalarning ikki xil ko'rinishi mavjud bo'lib bular oddiy va suriluvchi freymalardir. Freymli strukturaga ega bo'lgan hujjatlar `<frameset>` va `</frameset>` teglari yordamida yaratiladi. Bu ikki teg orasida hosil qilinayotgan alohida freymalarga oid ma'lumotlar e'lon qilinadi. Alohida freymalar `<frame>` va `</frame>` teglar yordamida yaratiladi. Agar sizning brauzeringiz freymalarni tushunmasa u holda ekranda `<noframes>` va `</noframes>` teglari orasida yozilgan ma'lumot tasvirlanadi.

`<frameset>` tegining asosiy vazifasi brauzer oynasini bir nechta bo'laklarga bo'lish. Buning uchun asosan vertikal va gorizantal bo'yicha freymalar o'lchami va sonini ko'rsatib turuvchi *rows* va *cols* parametrlari ishlatiladi.


- *cols* parametri brauzer oynasida gorizantal bo'yicha freymalar soni va o'lchamini ko'rsatadi. Parametr qiymati sifatida vergullar bilan ajratilgan freymalar o'lchamlari ro'yxati keltiriladi. o'lchamlar odatdagidek sonlarda yoki protsentlarda beriladi. Jimlik bo'yicha 100% qiymat ishlatiladi.

- *rows* parametri brauzer oynasida vertikal bo'yicha freymalar soni va o'lchamini ko'rsatadi. Parametrga qiymat berish *cols* parametri bilan bir xil bo'ladi.

### Amaliyya ishni bajarishga doir 1-ko'rsatma

Misol: 9\_1

```
<!DOCTYPE html>
<html>
<body>
<h2>Fremlar bilan ishlash</h2>
</iframe>
</body>
</html>
```



### 5-rasm:Fremlar bilan ishlash

Diqqat bilan HTML kodni va uning ekranda chiqargan natijasini tahlil qilish natijasidan ko‘rinadiki, bu yerda `<body>` va `</body>` teglari ishlatilmagan. Bu teglar orasida ekranda hosil qilinishi kerak bo‘lgan barcha asosiy ma’lumotlar yoziladi, `<frameset>` tegi bo‘lsa brauzerga oynani freymlarga ajratish haqida ma’lumot beradi. Yuqoridagi misolda biz `cols` parametrini ikkita qiymati bilan ishlatdik. Bu qiymatda birinchi freym uchun 150 piksel joy ikkinchi freym uchun esa qolgan joyning hammasi ishlatilishi ko‘rsatilgan. Misolda ko‘rganimizdek `<frame>` teglari har bir freymni alohida e’lon qiladi va ularning xossalarini ko‘rsatadi. Misolimizda biz qiymat sifatida html hujjatning manzilini qabul kiluvchi `src` paramerini ishlatdik. Bundan tashqari biz `<noframes>` va `</noframes>` teglarini ham ishlatdik. Bu teglar orasida yozilgan ma’lumot brauzer tomonidan freym texnologiyasi tushunilmagan holatda ekranda paydo bo‘ladi. Berilgan o‘lchamda bo‘lingan freymlar chegarasini foydalanuchi tomonidan o‘zgartirish imkoniyati mavjud. Buning uchun `splitter` deb nomlanuvchi chegara chizig‘idan sichqoncha ko‘rsatkichi bilan ushlab surish qifoya. Asosiy brauzer oynasini bitta ustunda joylashgan ikkita freym va qolgan joyni egallovchi uchinchi freym ko‘rinishida bo‘lishimiz uchun kuydagi html kodni yozishimiz kerak.

### **Amaliy ishni bajarishga doir 2-ko‘rsatma**

#### **Frame tegi va uning parametrlari.**

`<frame>` tegi alohida freymlar xossalarini o‘rnatish uchun ishlatiladi. Endi biz `<frame>` tegida ishlatiladigan parametrlar bilan tanishib chiqamiz.


- *name* parametri freymning nomini ko'rsatishda ishlatiladi, buni *id* parametri bilan almashtirmaslik kerak. *pame* parametri yordamida berilgan nom o'zak freymdan tashqarida joylashgan boshqa bir hujjatni yuklaganda teglarda gipermurojaat sifatida ishlatiladi.
- *src* parametri freymda tasvirlanishi kerak bo'lgan HTML hujjatning URL ini berishda ishlatiladi.
- *frameborder* parametri freym chegara hoshiyalarining bo'lish yoki bo'lmasligini ko'rsatadi. Parametr qiymati 0 yoki 1 sonlari bo'lishi mumkin. Jimlik bo'yicha parametr 1 qiymat qabul qiladi va freym chegara hoshiyasi ko'rinuvchi bo'ladi. Agar qiymat 0 freym chegarasi hoshiyasi ko'rinmaydi.
- *marginwidth* parametri freymning gorizontal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.
- *marginheight* parametri freymning vertikal bo'yicha o'lchamini piksellarda beradi.
- *noresize* parametri freym o'lchamlarining o'zgarmasligini ta'minlaydi. Agar biz bu parametрни qo'llasak foydalanuvchi tomonidan freym chegaralarini o'zgartirish imkoni bo'lmaydi. Bu parametrdagi qiymat yo'q.
- *scrolling* parametri foydalanuvchiga freymdagi o'tkazish yo'lakchasi (lineyka prokrutki)ni boshqarish imkonini beradi. Qiymat sifatida quyidagi *auto*, *yes*, *no* kalit so'zlaridan bittasini qabul qiladi. Jimlik bo'yicha *auto* qiymati qabul qilingan bo'ladi, bu esa freymdagi ma'lumotlar tasvirlanish sohasiga joylashmagan vaqtda utkazish yulakchasi paydo bo'lishini bildiradi. *yes* qiymati esa freymdagi ma'lumot tasvirlanish sohasiga sig'ishi yoki sig'masligidan qat'iy nazar o'tkazish yo'lakchasi doimo chiqib turishini bildiradi. *no* qiymati esa freymda o'tkazish yo'lakchasining chiqishini umuman taqiqlaydi.

Biz yuqoridagi misollarimizda freymlar brauzer oynasini alohida bo'laklarga to'liq bo'lganini ko'rdik. Lekin freymning shunday turi ham mavjudki, ularni HTML hujjatga xuddi grafik tasvir joylashtirganday joylashtirish mumkin. Bunday turdagi freymnlarni HTML hujjatga joylash uchun *<iframe>* tegi ishlatiladi. Grafik ob'ekt joylashtirish tegidan farqli ravishda bu teg o'zining yopiluvchi *</iframe>* tegiga ega.

```

<!DOCTYPE html>
<html>
<body>
<h2>Fremlar bilan ishlash</h2>
<p>Frem ichiga ma'lumotlar kiritish:</p>
<iframe src="frames.htm" style="background-color:blue;"></p>
</iframe>
</body>
</html>

```



	1-Amaliy mashg'ulotning topshiriqlari xar bir tinglovchi bitta fanning mavzulari bo'yicha elektron qo'llanmasini <b>Fremlar</b> yordamida yaratish
	<b>Variantlar</b>
1	Kompyuter bilan ishlashda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiena talablari
2	Kompyuterning asosiy va qo'shimcha qurilmalari hamda ularning vazifalari. Ma'lumotlarni saqlovchi xotira vositalari bilan ishlash
3	Axborot tushunchasi, uni ko'rinishlari, o'lchov birliklari. Axborotni qayta ishlash, saqlash va uzatish
4	Algoritmlar nazariyasi va algoritmlashtirish. Algoritmni ifodalash usullari. Misol va masalalarni hal qilish algoritmlarini ishlab chiqish.
5	Operatsion tizimlar. Windows operatsion tizimi
6	Windows operatsion tizimi muhitini tuzilishi va unda ishlash kontseptsiyasini o'rganish hamda uning asosiy vazifasi va texnologik imkoniyatlari
7	Microsoft Word dasturida ishlash
8	Microsoft Excel dasturida ishlash
9	Microsoft Power Point dasturida ishlash
10	Microsoft Access dasturida ishlash
11	Paint dasturida ishlash
12	Adobe Photoshop dasturi ishlash
13	Corel Draw dasturi
14	Ulead Gif Animator dasturi ishlash

15	Ligth Alloy, Winamp dasturlari (Multimediya)
16	Movie Maker dasturida ishlash
17	Total Commander. Arxivlash dasturlari (Win Rar)
18	Kompyuter viruslari va antivirus dasturlari haqida ma'lumot (Eset Nod 32 Antivirus).
19	Adobe Reader va Fine Reader dasturlari, PDF formatdagi fayllar
20	Zamonaviy dasturlash tillari va vositalari. Paskal ABC dasturlash tili
21	Kompyuter tarmoqlari. Tarmoq topologiyalari
22	Lokal tarmoqni tashkil etish, ishlash va sozlash
23	Internet tushunchasi va unga ulanish usullari. Internet xizmat turlari
24	Brauzer tushunchasi va ularning vazifalari. Internet Explorer dasturi ishlash. Elektron pochta xizmati va uning imkoniyatlari
25	Internetda axborot qidiruv tizimlari. Internet orqali muloqot va uning ahamiyati
26	Kompyuter bilan ishlashda hayot faoliyati xavfsizligi qoidalari va sanitariya-gigiena talablari

### NAZORAT SAVOLLARI

- 1) Protokol nima ?
- 2) Murojat rangi ?
- 3) WWW ning xoxlagan joyiga murojaat tegi ?
- 4) *vlink* ning vazifasi ?
- 5) `<a href>` va `</a>` ning vazifasi ?
- 6) *link* kalit so'zining vazifasi ?
- 7) Tasvirlarni murojaat sifatida ishlatish ?
- 8) Freym nima ?
- 9) Freymning asosiy teglarini ?
- 10) *frameset* tegining asosiy vazifasi ?
- 11) *cols* ning vazifasi ?
- 12) *rows* ning vazifasi ?

### Foydalanilgan Adabiyotlar

- 15.Sh. Pauers Dinamicheskiiy HTML "Lori", 1999. 384 s.
- 16.Vayk A., Djilliam Dj.JavaScript: Polnoe rukovodstvo: Pervod s angliyskogo."Vilyams", 2004. 719 s.



17. Lehev D. Sozdanie interaktivnogo web-sayta: Uchebno'y kurs. "Piter", 2003.
18. Dronov V. JavaScript v Web-dizayne. SPb-Peterburg, 2002. 880 s.
19. Djeyson Krenford Tige DHTML i CSS dlya Internet. NT Press, 2005. 520 s.
20. Gaevskiy A. Yu., Romanovskiy V. A. Samouchitel po sozdaniyu Web-stranits
21. Matrosov, Sergeev, Chaunin. HTML 4.0 v podlinnike. BHV-SPb, 2000, 672 s.
22. Uilton P. JAVASCRIPT. Osnovo'. Simvol-plyus. 2002. 1056 s.
23. Kingli-Xyu E., Kingli-Xyu K. JAVASCRIPT 1.5: Uchebno'y kurs. Piter. 1-e izdanie. 2002.
24. Brandenbau. JAVASCRIPT. Sbornik retseptov dlya professionalov. SPb. 2001.
25. Reynbou V. Kompyuternaya grafika SPb-Piter, 2003. 768 s.
26. Vikram Vasvani. Polno'y spravochnik po MyS=L. MyS=L: The Complete Reference. Izdatelstvo: Vilyams, 2006 g., 528 str.
27. Lyuk Velling, Lora Tomson MyS=L. Uchebnoe posobie MyS=L Tutorial Perevod: Myagkaya oblojka Izdatelstvo: Vilyams, 2005 g., 304 str.
28. Pol Dyubua MyS=L MyS=L Seriya: Landmark Drugie izdaniya: Tverdo'y pereplet Analogi: Tverdo'y pereplet Izdatelstvo: Vilyams, 2004 g., 1056 str.

### **Amaliy mashg'ulot № 3**

#### **MAVZU: HTMLDA FORMALAR.**

Ishdan maqsad: HTMLda formalar yaratishni o'rganish.

#### **NAZARIY QISM**

HTML formalar, foydalanuvchilar tomonidan, ma'lumotlarni kiritish va kiritilgan ma'lumotlardan keyinchalik foydalanish maqsadida tashkil qilingan. Formalar – matnli oynalar, tugmalar, bayroqchalar, ulagich(pereklyuchatel)lar va menyular kabi boshqariladigan elementlardan tashkil topishi mumkin. Formalar `<form>` va `</form>` teglari orasida joylashadi.

Ba'zi xollarda foydalanuvchi bilan brauzer o'rtasida aktiv muloqat qilishga to'g'ri keladi, ya'ni ma'lumotlarni kiritishga va tahrir qilishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda biz yuqorida aytganimizdek HTML hujjatning formalar deb ataluvchi bo'limidan foydalanamiz. Foydalanuvchi yuqorida ko'rsatilgan formalarni ma'lumotlar bilan to'ldiradi va uni qayta ishlash uchun serverga jo'natadi. Server bu odatda Web-server yoki elektron pochta serveri bo'lishi mumkin.

Shunday qilib har qanday formaning asosiy qismi bo‘lib uning boshqariladigan elementlari hisoblanadi. Bu elementlarning har biri o‘z nomiga ega va bundan tashqari bu elementlar o‘zining boshlang‘ich qiymatiga hamda joriy qiymatiga ega.

Elementning boshlang‘ich qiymati uning birinchi hosil qilinishida yoki uning qaytadan o‘rnatilishida (initsializatsiya) ekranda tasvirlanadi. Keyinchalik foydalanuvchi bu qiymatlarni o‘zgartirishi mumkin. Foydalanuvchi tomonidan to‘ldirilgan formaning qiymatlari «nomqqiymat» juftlik ko‘rinishida qayta ishlanish uchun jo‘natiladi.

HTML formalar quyidagi boshqariladigan elementlardan foydalanadi:

### **Tugmalar (*buttons*)**

Uchta turdagi tugmalar mavjud:

- Jo‘natuvchi tugmalar – bu tugmalar yordamida formalar serverga qayta ishlash uchun jo‘natiladi.
- Inkor etuvchi tugmalar – bu tugma bosilsa formaning hamma qiymatlari qaytadan boshlang‘ich xolatiga o‘rnatiladi.
- Umumiy tugmalar – bunday turdagi tugmani bosganda shu tugmaga bog‘langan protsedura ishga tushadi.

### **Bayroqchalar (*checkboxes*)**

Bayroqcha – bu ikkita (tanlangan yoki tanlanmagan) holatga ega bo‘ladigan element. Bayroqchalar *input* elementi yordamida hosil qilinadi.

### **Ulagichlar (*radiobuttons*)**

Ulagichlar ham bayroqchalarga o‘xshaydi, ammo bitta farqi shundaki hamma elementlari bitta nomga ega bo‘ladi va shulardan bittasi tanlanadi. Ulagichlar ham *input* yordamida tashkil qilinadi.

### **Menyular (*menus*)**

Menyu foydalanuvchiga bir nechta variantlardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatini yaratadi. Menyu *selest* elementi yordamida *optgrup* va *option* lar bilan birgalikda tashkil qilinadi.

### **Matn kiritish maydoni (*text input*)**

Matnni foydalanuvchi tomonidan kiritilishini amalga oshiruvchi ikkita element mavjud. *input* elementi bitta qatorli kiritishni ta‘minlaydi. *textarea* – ko‘pqatorli kiritishni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

### **Fayl selektori (*file selest*)**

Bu element yordamida biz serverga yuboradigan faylni tanlaymiz. Fayl selektori ham *input* elementi yordamida amalga oshiriladi.

### **<form> </form> teglari**

Formalar tashkil qilish *form* elementi yordamida amalga oshiriladi va biz uning umumiy ko‘rinishi bilan tanishib chiqamiz.

Umumiy ko‘rinishi:

**Sintaksis** : `<FORM> ... </FORM>` (Blokli element)

**Atributlar**: *id, class, style, title, lang, dir, xodisa*

*action* = URL (formalarni qayta ishlash uchun ko'rsatilgan URL manzil)

*method* = GET / POST (formalardagi ma'lumotlarni jo'natish uchun HTTP metodi)

*enctype* = fayl tipi (formaga murojat qilish uchun)

*accept* = fayllar tiplari (bo'lishi mumkin bo'lgan fayllar tiplari)

*accept-charset* q kodlashtirishlar (bo'lishi mumkin bo'lgan simvollarni kodlash usullari)

*name* = CDATA (stsenariya uchun forma nomi)

*target* = freym (natijalarni hosil qilish uchun freym)

*onsubmit* = stsenariya (formani jo'natish)

*onreset* = stsenariya (formani qaytadan o'rnatish)

## Amaliy ishini ishlash bo'yicha


### 1-ko'rsatma

**Input, form radio, boshqarish** tugmalari bilan ishlashga doir

```
<html>
<head>
  <title>Formalarga doir misol</title>
</head>
<body>
<form action="http://maks//cgi/person.exe" method="post">
<p>
<label for="firstname"> ism: </label>
<input type="text" id="firstname">
<br>
<label for="lastname"> familiya: </label>
<input type="text" id="lastname">
<br>
<label for="email"> e-mail: </label>
<input type="text" id="mail">
<br>
<input type="radio" name="sex" value="male" checked="checked" > erkak
<br>
<input type="radio" name="sex" value="femole"> ayol <br>
<input type="submit" value="send">
<input type="reset" value="Reset">
</p>
</form>
```

</body>

</html>



## 6-rasm:Ma'lumot kiritish

### Ma'lumotlarni kiritish *INPUT* elementi

Umumiy ko'rinishi:

**Sintaksis:** <INPUT> (Yopiluvchi tegi yo'q)

**Atributo':** id, class, style, title, lang, dir, hodisa

*type* = TEXT | PASSWORD | CHECKBOX | RADIO | SUBMIT | RESET |  
FILE | HIDDEN | IMAGE | BUTTON (Kiritish turi)

*name* = CDATA (Element nomi)

*value* = CDATA (Elementning boshlang'ich qiymati)

*checked* = CHECKED (Bayroqchalar va ulagichlarning tanlanganlik holati)

*readonly* = READONLY (Matn va parol uchun *faqat ukish uchun*)

*disabled* = DISABLED (Element taqiqlangan)

